



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Ilmiy rahbar: Shopulatova Nasiba Umirovna

*NIU ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsent v.b
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Nasrullayeva Yulduz G'ofur qizi

*NIU ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs 3-guruh talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati, samarali usul va metodlari ishlab chiqilgan. Mustaqil fikrlashni shakillantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni alohida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, mustaqil fikrlash, interfaol metodlar, ijodiy fikrlash, o'quvchi faolligi, muammoli vaziyat.*

РАЗВИТИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ МЕТОДЫ

Аннотация. *В статье рассматривается педагогическая значимость развития самостоятельного мышления у учащихся начальной школы, эффективны методы и техники. Отдельно анализируется роль современных педагогических технологий в формировании самостоятельного мышления.*

Ключевые слова: *начальное образование, самостоятельное мышление, интерактивные методы, художественная литература, деятельность учащихся, проблемная ситуация.*

METHODS FOR DEVELOPING INDEPENDENT THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article discusses the pedagogical importanse, effective methods and techniques for developing independent thinking in primary school students. The role of modern pedagogical technologies in the formation of independent thinking is separately analyzed.*

Keywords: *Primary education, independent thinking, interactive methods, creative fiction, student activity, problem situation.*

Boshlang'ich ta'lim, ta'lim yonalishlarining poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol tarbiyalash masalasi davlat





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



miqiyosidagi ustuvor masala etib belgilandi. Bu yo'nalishda Prezidentimiz ko'plab qarorlar, farmonlar qabul qilib, muhim islohatlar amalga oshirdilar va yanada mukammallashtirdilar.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda bilim olishga qiziqish, tafakkur va dunyoqarashini shakillantiradigan muhim davrdir. Bu ta'lim bosqichida o'quvchilarda mustaqil fikirlashni rivojlantirish kelgusidagi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishini taminlab beradi. Bugungi kundagi zamonaviy ta'lim o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi sifatida tarbiyalashni belgilab beradi.

Mustaqil fikrlash - bu o'quvchilarning muammoni anglab, uni tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'z fikrini erkin bayon qilishidir. Boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlash o'quvchilarning:

- mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi;
- ijodiy fikrlashini kengaytiradi;
- bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam berdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagi usullar orqali o'rgatish foydali bo'ladi:

Aqliy hujum metodi. Bu metod o'quvchilar erkin fikirlashga majbur qiladi. Savollar va muammo asosida o'z fikrini ochiq bildiradilar.

Muammoli ta'lim. Bu metodda o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga muammo yaratadi va o'quvchilar unga mustaqil ravishda yechim izlashadi.

Klaster metodi. Bu metod o'quvchilarning tahliliy fikirlashini oshiradi va ular orasidagi bog'lanishni chuqurroq anglaydi.

Rol o'ynash metodi. Bu metodda o'quvchilar o'zini turli vaziyatda tasavvur qililishadi va mustaqil qaror qabul qiladi.

Savol - javob metodi. Bu metodda o'quvchilar o'z fikrlarini aniq qilib asoslab beradilar.

O'quvchilarning mustaqil fikirlashini rivojlantirish, bilimlarini mustahkamlash va darsga qiziqtirish maqsadida quyidagi "Klaster" metodini qo'llab ko'ramiz.

Bu metodni 4-sinf "O'qish savodxonligi kitobidagi "Do'stlik - katta boylik" matni orqali amalda qo'llaymiz.

Ushbu metodni qanday ketma - ketlikda amalga oshirish bosqichlari tushuntiriladi:

1-bosqich. Bu bosqichda o'quvchilar "Do'stlik - katta boylik" matnini mustaqil o'zlari o'qiydilar.

2-bosqich. Bu bosqichda o'qituvchi doskaga "Do'stlik" so'zini yozadi. Keyin o'quvchilar doskaga chiqib matndan kelib chiqqan holda, atrofga tarmoqlar hosil qiladilar. Masalan:

- ✓ Mehr
- ✓ Sadoqat
- ✓ Yordam
- ✓ Ichonch
- ✓ Hurmat

3-bosqich. Bu bosqichda o'quvchilar 4-5 kishilik guruhlariga bo'linadilar. Guruhlar klasterdagi tarmoqlarni boyitadilar va fikrlarini asoslab beradilar.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



4-bosqich. Bu bosqichda har bir guruh nega aynan shu tushunchalarni tanlaganini izohlab beradilar.

5-bosqich. Bu bosqich metod yakuni hisoblanib, o‘quvchilarga savol beriladi:

“Do‘stlik nima uchun katta boylik deb aytilgan?”

Bunda o‘quvchilar 1-2 gap bilan mustaqil xulosa yozadilar.

Bu metodda o‘quvchilar matn mazmunini chuqur o‘zlashtiradi,

mustaqil va mantiqiy fikrlaydi, o‘quvchining nutqi boyiydi va o‘qish savodxonligi oshadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchi muhim rol o‘ynaydi. Bunda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchidir. O‘qituvchi o‘quvchilarning har qanday fikrini hurmat qilishi, ularni erkin mulohaza qilishga undashi muhimdir. Boshlang‘ich sinflar uchun tayyorlanadigan darsliklar ham matn oxirida beriladigan mashq va topshiriqlar asosida o‘quvchi mustaqil fikrlashga yo‘naltirishi lizim. Masalan: “Ertak qahramoni o‘rnida bo‘lishni hohlaysizmi?”, “Hikoya qahramoniga qanday maslahat berasiz?”, “Hikoyani davom ettira olasizmi?”, yoki “Sher kimning tilidan aytilgan?” kabilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish ta’lim sifatini yanada rivojlantiradi. Bugungi kundagi zamonaviy metodlardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini shakllantirish mumkin. Bu esa kelajakda mustaqil va ma’suliyatli shaxni tarbiyalashga yordam beradi. O‘zib borayotgan yosh avlod bizning kelajagimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlat ta’lim standartlari. Boshlang‘ich ta’lim uchun DTS. - Toshkent 2021.
2. Ismailova, S. Boshlang‘ich sinf metodikasida interfaol usullar. - Toshkent: 2021
3. Abdullayeva N. Boshlang‘ich ta’limda mustaqil fikrlashni shakllantirish metodlari. - Toshkent 2019
4. Jurayev A. O‘qish savodxonligi va tafakkur madaniyati. - Toshkent: 2020.
5. Ziyonet portali - pedagogik innovatsiyalar va metodik tavsiyalar (online resurs).